

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/26.05.2022.T.10.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

"TIQXMMI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SALIYEV ERGASH ALIBEKOVICH

**NORAVSHAN TO‘PLAMLAR NAZARIYASI ASOSIDA TASVIRLARNI
TAHLIL QILISH ALGORITMLARI**

05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari

**FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract Doctoral (DSc) dissertation

Saliyev Ergash Alibekovich

Noravshan to'plamlar nazariyasi asosida tasvirlarni tahlil qilish algoritmlari

..... 3

Салиев Эргаш Алибекович

Алгоритмы анализа изображений на основе теории нечетких множеств

..... 29

Saliev Ergash Alibekovich

Image analysis algorithms based on Fuzzy set theory.....

58

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

"TIQXMMI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

SALIEV ERGASH ALIBEKOVICH

**NORAVSHAN TO‘PLAMLAR NAZARIYASI ASOSIDA TASVIRLARNI
TAHLIL QILISH ALGORITMLARI**

05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari

**FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

(DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.DSc/T28 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan,
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xamdamov Rustam Xamdamovich
Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Igamberdiev Xusan Zakirovich
Texnika fanlari doktori, professor
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Opanasenko Vladimir Nikolaevich
Texnika fanlari doktori, professor

Primova Holida Onarboevna
Texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qozon (Volga bo'yi) Federal universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli ilmiy kengashning "16" 12 2023 yil 1400 soatdagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel: (99871) 237-19-36; faks: (99871) 237-54-79; e-mail : admin@tiame.uz)

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2023 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel: (99871) 237-19-45).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "05" 12 kuni tarqatildi.
(2023 yil "01" 07 dagi 17 raqamli ro'yxat bayonnomasi.)



N.S. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

D.K. Bekmurotov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

S.S. Radjabov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tasvirlarga raqamli ishlov berish, tahlil qilish, tasvirlardagi obyektlarni ajratish, tanib olish usul va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish hamda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar va tasvirlarni qayta ishlash algoritmlarini takomillashtirishni identifikatsiyalashni kompyuter asosidagi analitik yondashuvlarini ishlab chiqishga imkon berdi. Tasvirlarni tahlil qilishda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay, ular asosan noravshan bo'lmagan ma'lumotlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, tasvir noravshan elementlari bo'yicha tadqiqotlarning hech birida noravshan to'plamlar nazariyasi asosidagi tasvirlarni qayta ishlash bosqichlari tahlil etilmagan, ya'ni segmentlash, belgilarni ajratish, tasniflash va tanib olish kabilar deyarli amalga oshirilmaydi. Ushbu yo'nalishda tasvirlarini tahlil qilishning asosiy masalalari sinflashtirish, ulardagi obyektlarni tasniflash, tanib olish, qonuniyatlarni aniqlashning noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda ilovalarini yaratish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda tasvirlarini tahlil qilish, qayta ishlash, tasvirdagi obyekt va uning belgilarini shakllantirish, tanib olish usul va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish hamda hisoblash algoritmlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, noravshan to'plamlar nazariyasi elementlari asosida tasvir kontrastini normallashtirish, tasvirdagi xalaqitlarni bartaraf etish, tasvir obyektlari konturlarini ajratish va segmentash, tasvir obyektlarini tanib olish algoritmlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda jahon axborot makoniga mamlakatimizning integratsiyalashuvini tezlashtirish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalarni, jumladan qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash intellektual tizimlarida talab darajasidagi aniqlikni olishni ta'minlaydigan model, usul va algoritmlarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "... iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish...; aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlari samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish; foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarni mahalliy ekotizimini yaratish; sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, tasvirlar orqali berilgan ma'lumotlarni intellektual tahlilga oid masalalarni yechish uchun yuqori aniqlikni ta'minlaydigan tizimlarda tasvirlarni qayta ishlash va sifatini oshirish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

tasvirdagi kontur chiziqlarini ajratish, tasvirlarni segmentatsiyalash masalalarini yechish uchun noravshan to'plamlar nazariyasi elementlariga asoslangan model, usul, algoritmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-apreldagi PQ-4276-son "Favqulodda vaziyatlar bo'limlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnikani rivojlantirishning IV. "Axborot va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili². "Soft computing" vositalaridan foydalanish, tasvirlarni qayta ishlash va tanib olish algoritmlari ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy ishlar Kaliforniya universiteti, Massachuset texnologiya instituti, Microsoft Akademiyasi, Oracle tadqiqot markazi (AQSh), Kioto va Tokio texnologiya universitetlari (Yaponiya), Inha, Seul milliy fan va texnologiya va Incho universitetlari (Janubiy Koreya), Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti, N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Novosibirsk davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Hisoblash markazi (Rossiya Federasiyasi), Varshava texnologiya universitetlari (Polsha) kabilarda faol olib borilmoqda.

Jahonda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tasvirlarni qayta ishlash va tanib olish algoritmlari yangi avlodini ishlab chiqish (takomillashtirish) bo'yicha tadqiqotlarda, jumladan quyidagi ilmiy yangiliklar olingan: ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlarini neyron tarmoq texnologiyalari asosida takomillashtirish hisobiga ma'lumotlarni tahlil qilish va tasvirlarni tasniflashdagi xatoliklari 10-15%ga qisqarishiga olib kelishi asoslangan (Massachuset Texnologiyalar instituti, Microsoft Akademiyasi, Oracle Tadqiqot Markazi, Moskva Davlat Texnika Universiteti, RFA Hisoblash markazi, Inha universiteti, Seul Milliy fan va

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi
<https://elibrary.ru/item.asp?id=21681096>, <https://studfiles.net/1376730/>, <https://cyberleninka.ru/.../obzor-metodov-raspoznavaniya-simvolov>, <http://intellect-tver.ru/?p=165>, <http://www.nickart.spb.ru/analysis/market.php>,
<http://www.cedar.buffalo.edu/~srihari/CSE555/>, <https://www.ibm.com/developerworks/ru/library/ba-data-mining-techniques/index.html>, www.open.edu/openlearn-create/mod/resource/view.php?id,
<http://ieeexplore.ieee.org/document/824819/>
va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

texnologiya universiteti, Incho universiteti); “Yumshoq hisoblash” vositalaridan foydalanib tasniflash xatoligini kamaytirish esa obyektning tavsiflovchi belgilarni 20-25%ga qisqartirish hisobiga tanib olish tezligini oshirishga asoslangan (Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti, Kaliforniya universiteti, Seul milliy fan va texnologiya universiteti, Novosibirsk davlat universiteti).

Jahonda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish borasida “Soft Computing” vositalarini ishlab chiqish, qayta ishlangan axborot hajmi va uning elementlari xususiyatlari ortib borishida boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun muqobil xatolarni minimallashtirishga qaratilgan tahlil vositalari imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek tasvirlarni tahlil qilish va timsollarni tanib olish usul va algoritmlarni takomillashtirish hamda yangilarini yaratish bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: dastlabki axborotning o'ta cheklangan hajmida ishlovchi va tanib olish tizimlari intellektualligini ta'minlovchi usul va algoritmlar ishlab chiqish; katta o'lchamli belgilar fazosida tanib olish usul va algoritmlarini ishlab chiqish; tasvirlardagi obyektlarni aniqlash usul va algoritmlar ishlab chiqish; kiruvchi axborotning integratsiyalashgan qayta ishlashini ta'minlab, “yumshoq” hisoblashlar texnologiyalaridan foydalangan holda nutq, matn, tasvirlarni segmentatsiyalash va tanib olish tizimlari kabi tizimlarini yaratish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tasvirlarni qayta ishlash, tahlil qilish va tanib olishda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar natijasida muhim nazariy va amaliy natijalar olingan. Ko'plab xorijiy olimlar ishlari tasvirlarni tahlil qilish va tanib olish muammosini hal qilishga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida D.Ballard, Ye.Devis, R.Gonsales, Yu.I.Juravlev, V.A.Soifer, J.Serre, D.Marrning, A.Dempster, G.Shafer, M.Pavel, Yu.P.Pytev, Y.A.Furman, L.P.Yaroslavskiy ishlarini alohida ko'rsatish mumkin. Noravshan to'plamlar nazariyasi, intellektual tahlil va axborotni qayta ishlash tizimlari, qarorlar qabul qilish tizimlarini qo'llash asosida turli sohalarda boshqaruv tizimlari va ma'lumotlar tahlilini amaliy tatbiq etish masalalarini yechish va tadqiq qilishning nazariy asoslari muhim natijalari jahonning yetakchi olimlari L.Zade, R.Yager, A.Koffman, J.Klira, Ye.A.Mamdani, Terano, Sugeno, Asai, A.N.Averkin, A.N.Borisov, D.A.Pospelova, R.A.Aliyeva, F.Hyerera, T.Fukudo, C.Karr, M.Lozano, M.Sakava, O.Kordon, J.Kasilyas, F.Xoffman, R.Yang, V.Kruglov, A.Rotshteyn, S.Shtobva va boshqalar tomonidan olingan.

Respublikamizda an'anaviy matematik apparatlardan foydalangan holda va noravshan to'plamlar nazariyasi modellari asosida ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish va tasvirlarni tanib olish tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha ham faol izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan M.M.Kamilov, T.F.Bekmuratov, Sh.X.Fazilov, R.X.Xamdorov, D.T.Muxamedieva, N.S.Mamatov, N.Mirzaev kabilarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovor.

Mazkur tadqiqotlar natijasida qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash intellektual tizimlari uchun ishlab chiqilgan model, usul, algoritmlar ushbu

muammolar mavjud ko'p sohalardagi amaliy masalalarni yechishda muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, biroq tasvirlar orqali berilgan boshlang'ich ma'lumotlarni intellektual tahlilga oid muammolarni hal qilishda noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan model, usul va algoritmlarni ishlab chiqish hamda amliyotda qo'llash bo'yicha tadqiqotlarga alohida ye'tibor qaratish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq №A-5-19 "Noravshan to'plamlar nazariyasi asosida tasvirlarni qayta ishlash va tahlil qilish algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tasvirlarni tahlil qilishning noravshan model va algoritmlari hamda dasturiy ta'minotni ishlab chiqishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **tadqiqot vazifalari qo'yilgan:**

tasvirni qayta ishlash va tahlil qilish tizimlarini loyihalash bo'yicha tadqiqotlar holatini o'rganish va tahlil qilish;

noravshanlik sharoitida tasvirlarni tahlil qilish va tanib olish modellari va usullarini ishlab chiqishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish;

tanib olish tizimlarida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun muqobil ishlab chiqish masalasining matematik qo'yilishini shakllantirish;

noravshan to'plamlar nazariyasi asosida tasvirni yaxshilashtirish algoritmi va dasturiy modulini ishlab chiqish;

noravshan to'plamlarning matematik apparati asosida tasvirlarning kontur chiziqlarini aniqlash algoritmi va dasturiy modulini yaratish;

noravshan to'plamlar nazariyasi asosida tasvirlarni segmentatsiyalash uchun algoritmik dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

qarorlarni qo'llab-quvvatlashning intellektual tizimlarida tasvirni qayta ishlash, tahlil qilish va tanib olish uchun ishlab chiqilgan modellar, usullar, algoritmik va dasturiy vositalarni joriy yetish, olingan natijalarning qiyosiy tahlilini o'tkazish va ishlanmalar samaradorligini tekshirish.

Tadqiqotning obyeksi tasvirga olishning turli vositalari orqali olingan raqamli tasvirlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti noravshan to'plam yondashuviga asoslangan tasvirlarni qayta ishlash va tahlil qilish model, usul va algoritmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, noravshan to'plamlar nazariyasi, ehtimollik va boshqaruv nazariyasi, ekspert baholashlar, tasvirlarni qayta ishlash va tanib olish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli tasvirlardagi uchraydigan noaniqliklarni inobatga olgan holda intuitiv noravshan to'plamiga ko'ra kamaytirishni moslashuvchan va barqaror matematik modeli takomillashtirilgan;

klasterlash usullar xossalarini inobatga olgan holda qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash qoidalariga ko'ra tasvirlarni segmentatsiyalashning noravshan yondashuvli uslubi ishlab chiqilgan;

shovqin turlarini inobatga olgan holda ranglarni sezilarli o'zgarmaydigan lokal sohalarni tekislash yondashuvlariga ko'ra ularni pasaytirish algoritmi ishlab chiqilgan;

tasvir yoqinliklarini inobatga olgan holda noravshan o'sishlar tahliliga ko'ra kontur chiziqlarini ajratishning noravshan algoritmi ishlab chiqilgan;

tegishlilik funksiyalar xossa va xususiyatlarini inobatga olgan holda noravshan segment va ularni o'zgarishiga ko'ra yumshoq segmentatsiyalash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dinamik va strukturaviy xususiyatlar shkalasi asosida tasvirda shovqinlarni filtrlash algoritmi ishlab chiqilgan;

real video kadrlar asosida ma'lum bir obyektlar, jumladan o'rmon va dasht zonalarida yong'in holatini nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqilgan;

real vaqt rejimida videotasvirlarni raqamli qayta ishlashning samarali usul va algoritmlari asosida tutun, olov va yong'inni aniqlashda kadrlarni qayta ishlashni qurilma vaqtni qisqartirish imkoni yaratilgan;

ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish tizimlari asosida tasvirlarni raqamli qayta ishlash uchun noravshan to'plamlar nazariyasining matematik apparati ishlab chiqilgan;

qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun muqobil yechimlarni yaratishda tasvir obektlari konturlarini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

konturni tahlil qilish algoritmlari yordamida dinamik obektlarni ajratib olish aniqligi asoslangan;

k-o'rtacha va c-o'rtacha usullari yordamida rangli tasvirlarni segmentatsiyalashning noravshan klasterlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlashda muqobil variantlarni shakllantirish uchun noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan tasvirlarni qayta ishlash va tahlil qilishning taklif etilgan modellari va usullarini matematik o'rganish amalga oshirilgan, natijada olingan formulalar va hisob-kitoblar qiyosiy tahlili umumiy qabul qilingan mezonlarga asoslangan ma'lumotlar real va tajriba yordamida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalarini ziddiyatli bo'lmasligini baholash maqsadida obektlarni segmentatsiyalash va ularni konturlarini ajratish muammolarini hal qilishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot samaradorligi sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari uchun tasvirlarni tahlil qilish model, usul va algoritmlari asosida tasvirlarga raqamli ishlov berish va tanib olish sifat va ishonchlilikni ta'minlovchi tanib olish qoidalarini qurish texnologiyalarining nazariy asoslarini istiqbolli rivojlanishiga ishlab chiqilgan model va algoritmlarning hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan algoritmlar va dasturiy majmuani loyihalash hamda yaratiladigan turli zamonaviy tasvirlarni tahlil qilish tizimlarining ishchi belgilar lug'atini shakllantirish bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarini qo'llash obyekt, hodisa va jarayonlarning muhim belgilari asosida tavsiflash orqali tasniflash va tanib olishga sarflanadigan manbalarni qisqartirish,

shuningdek, timsollarni belgilangan sifat va ishonchlilikni ta'minlagan holda tanib olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan tasvirlarni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan usullar, algoritmlar va dasturiy ta'minot asosida:

raqamli tasvirlardagi uchraydigan noaniqliklarni inobatga olgan holda intuiativ noravshan to'plamiga ko'ra kamaytirishni moslashuvchan va barqaror matematik modeli hamda dasturiy ta'minoti Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga joriy etilgan (Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2019 yil 26 noyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada tasvirlarni tahlil qilish hisoblash tezligini 2 barobarga oshirish imkonini bergan;

klasterlash usullar xossalarini inobatga olgan holda qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash qoidalariga ko'ra tasvirlarni segmentatsiyalashning noravshan yondashuvli uslubi Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2019 yil 29 noyabrdagi №2/4/24-3161-son ma'lumotnomasi). Natijada videotasvirdagi dinamik obyektlarni ajratib olishda 85-87%, ish unumdorligini esa 10-15% ga oshirish imkonini bergan;

shovqin turlarini inobatga olgan holda ranglarni sezilarli o'zgarmaydigan lokal sohalarni tekislash yondashuvlariga ko'ra ularni pasaytirish algoritmi va dasturiy ta'minoti Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga joriy etilgan (Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2019 yil 22 noyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada tasvirlarni tahlil qilish asosida tutun va olovni aniqlash vaqti 2 baravargacha qisqartirish imkonini bergan;

tasvir yorqinliklarini inobatga olgan holda noravshan o'sishlar tahliliga ko'ra kontur chiziqlarini ajratishning noravshan algoritmi hamda dasturiy ta'minoti Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga joriy etilgan (Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2019 yil 26 noyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada tasvirlarni tahlil qilish hisoblash tezligini 2-3 barobarga oshirish imkonini bergan;

tegishlilik funksiyalar xossa va xususiyatlarini inobatga olgan holda noravshan segment va ularni o'zgarishiga ko'ra yumshoq segmentatsiyalash algoritmi hamda dasturiy ta'minoti Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2019 yil 29 noyabrdagi №2/4/24-3161-son ma'lumotnomasi). Natijada videotasvirdagi dinamik obyektlarni ajratib olishda o'rtacha 85%, ish unumdorligini esa o'rtacha 15% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertasiya ishining asosiy nazariy va amaliy natijalari 24 ta ilmiy-amaliy konferensiya, jumladan, 13 ta xalqaro va 11 ta respublika simpozium va seminarlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqotning asosiy natijalari 39 ta ilmiy nashrlarda chop etilgan bo'lib, shundan 1 ta monografiya, 11 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalarining

asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, jumladan 5 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 185 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi va dolzarbligi asoslanadi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, tadqiqot obyekti va predmeti belgilanadi, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari belgilab beriladi. tadqiqotning yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatini tavsiflaydi, dissertatsiya tadqiqoti natijalarini amaliyotga tatbiq etish ro'yxati, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot beriladi.

Dissertatsiyaning tahliliy va analitik xususiyatga ega bo'lgan **“Tasvirlarni qayta ishlash va tahlil qilishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida raqamli tasvirga ishlov berishning zamonaviy yondashuvlari, usullari va algoritmlari tahlili olib boriladi, noravshan tasvirlarni tahlil qilish asosida qarorlar qabul qilish bilan ishlash ta'minlanadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, raqamli tasvirni qayta ishlash vazifalarida qo'llaniladigan mavjud yondashuvlar, modellar, usullar va algoritmlar qo'llaniladigan matematik apparatlar nuqtai nazaridan tahlilni kafolatlay olmaydi va kontrastlarni oshirish va konturlarni ajratib ko'rsatish bilan bog'liq muammolar zanjirini, ya'ni nazariy informatikaning markaziy muammolaridan birini shakllantirish va amalga oshirishda kerakli samaradorlik tartibiga ega segmentatsiya tasvirlari sifatida, raqamli tasvirlar ko'rinishida taqdim etilgan obyektlarni tasniflash va tanib olish muammolarini izchil hal qila olmaydi.

Ushbu muammo avtomobilning davlat raqamlarini aniqlash bilan bog'liq tasvirlar shaklida noravshan dastlabki ma'lumotlarni taqdim etishda ko'plab amaliy qarorlar qabul qilish muammolari uchun xosdir; odamlar, hayvonlar va o'simliklar kasalliklarining diagnostikasi; biometrik shaxsiy identifikatsiya; yerni masofadan zondlash, o'rmon yong'inlarini aniqlash; suv toshqini maydonini aniqlash, mahsulot sifatini tahlil qilish va raqamli tasvirlarni tahlil qilish va tadqiq qilishni talab qiladigan boshqa ko'plab shunga o'xshash vazifalar.

Shu sababli, asl ma'lumotlarning noravshan ifodalanishi sharoitida kontrastlarni oshirish, konturlarni ajratib ko'rsatish va tasvirlarni segmentlarga bo'lish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun raqamli tasvirni qayta ishlashning yondashuvlari, modellari, usullari va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish va tadqiq qilish masalalari dolzarbdir. Ya'ni, noravshan to'plamlar nazariyasining matematik apparati yordamida tasvirni qayta ishlash uchun modellar, algoritmlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish zarur.

Birinchi bobning yakuniy paragrafida dissertatsiya tadqiqotining maqsadi va asosiy vazifalari elon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Noravshan to'plamlar nazariyasi apparatidan foydalanib tasvirlarni qayta ishlash”** nomli ikkinchi bobida obyektlarning axborot

xususiyatlarini saqlaydigan muammoga yo'naltirilgan dastlabki ishlov berish yondashuvlaridan foydalanishni nazarda tutuvchi noravshan tasvirlarni qayta ishlash va identifikatsiyalash tushunchasi taklif qilingan. U funksiyalar ierarxiyasi haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, ishlov berish vaqtini qisqartirish orqali noravshan ishlov berish uchun tasvirdagi ob'yektni o'rganish va tanlash (aniqlash) jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish imkonini beradi.

Tasvirlarni qayta ishlashda ma'lum xususiyatlardan kelib chiqqan holda tasvirning ba'zi bir turdagi joylarini tanlash zarur bo'ladi. Tasvirni oldindan qayta ishlash bosqichlari buzilishlarning tanib olish jarayoniga ta'sirini kamaytirishi mumkin. Biroq, tanib olish to'liq bo'lmagan va noravshan ma'lumotlar sharoitida sodir bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun noravshan mantiq texnologiyalari eng mos keladi, noravshan mantiq klassifikator vazifasini bajaradi. Vizual ma'lumotlarni qayta ishlash muammolarida noravshan mantiqdan foydalanish tarmoq arxitekturasi va uning ishlash algoritmini saqlab qolgan holda noravshan mantiqni o'rganish yoki yangi vazifalarga moslashtirish xususiyati bilan ham oqlanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafida kirish va chiqishlarning tegishlilik funksiyasidan tuzilgan noravshan qoidalar keltirilgan va bu qoidalar "AGAR-U XOLDA" shaklida ifodalangan asosiy va xulosa o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi. Umuman olganda, qoidalar ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha bir yoki bir nechta mutaxassislarining tajribasidan kelib chiqishi mumkin.

Ushbu qoidalarda ko'rib chiqilayotgan piksel va uning qo'shnilari o'rtasidagi yorqinlik qiymatlaridagi farqlar kirish, bu pikselning yorqinligi qiymatlarining oshishi/kamayishi esa chiqish hisoblanadi. Agar tasvir yorqinligi qiymatlari $[0, L-1]$ oralig'ida (bu erda L - yorqinlik gradatsiyalari soni) deb faraz qilsak, u holda oddiy uchburchak noravshan to'plamlar - ijobiy o'rtacha va salbiy o'rtacha aniqlanadi. Interval $[-L+1, L-1]$ va kirish o'zgaruvchilarning yorqin va qorong'i yorqinligi qiymatlarini ifodalaydi va kichik musbat, nol va kichik manfiy uchburchak noravshan to'plamlar ko'rsatilgan qiymatning o'sishi (tuzilgan qoidalarning oqibatlarini bo'yicha) sifatida aniqlanadi. Chiqish qiymati asl piksel yorqinligi qiymatiga qo'shiladi.

Tasvirlarning sifatini yaxshilash uchun tasvir sifatini lokal moslanuvchan yaxshilashning hisoblash algoritmi o'rtacha yorqinlikni, shuningdek, uning taqsimlanishini, tasvir elementlari va uni tuzatish imkoniyatini hisoblash va tahlil qilish bilan, yani, tasvirning qorong'u joylarini ochiqroq qilish va tasvirning juda ochiq joylarini qorong'iroq qilish imkoniyati bilan, taqdim etilgan.

Quyida dastlabki ma'lumot noravshan bo'lsa, tasvir kontrastini yaxshilash usuli keltirilgan. Ma'lumki, buzilgan tasvir elementlari ko'pincha qo'shni elementlardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu kuzatish shovqinni kamaytirishni ta'minlaydigan ko'plab algoritmlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Agar berilgan elementning yorqinligi yaqin atrofdagi elementlar guruhining o'rtacha yorqinligidan ma'lum chegara qiymatidan oshsa, elementning yorqinligi noravshan o'rtacha yorqinlik bilan almashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. Noravshan dastlabki ma'lumotlarga ega ishlov berilgan tasvir

Tasvirning har bir nuqtasida natijaga erishish uchun ishlov berish protseduralarining aksariyati qayta ishlanayotgan nuqtani o'rab turgan asl tasvirdagi ma'lum nuqtalar to'plamidan ma'lumotlarni kiritishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bir qator protseduralar mavjud bo'lib, ularda elementlarga ishlov berish amalga oshiriladi. Xira tasvirda har bir elementni noravshan to'plam sifatida ko'rish mumkin.

Usulning samaradorligini oshirish uchun markaziy elementning yorqinligiga nisbatan standart og'ishlarni hisobga olgan holda tasvirning lokal atrofi qo'shimcha ravishda baholash va shu asosda mahalliy tasvir elementlaridan yorqinlik kontrastlarining chiziqli bo'lmagan transformatsiya funksiyasini shakllantirish taklif etiladi.

Quyida noravshan boshlang'ich ma'lumotlarga ega tasvir yorqinligini chiziqli oshirish algoritmi tasvirlangan.

Tegishlilik funksiyalari $\mu^f(x, y)$ va $\mu^g(x, y)$ quyidagicha aniqlanadi:

1. Normallashtirish:

$$u(x, y) = l \frac{f(x, y) - f_{\min}}{f_{\max} - f_{\min}}.$$

2. Fazzifikatsiyalash (Noravshanlanish):

$$\mu_i^f(x, y) = \frac{1}{1 + \frac{u(x, y) - c_i}{\sigma_f}}, \quad i = \overline{1, k}.$$

3. Fazzifikatsiyalashni (Noravshanlanishni) aniqlashtirish:

$$\mu_i^f(x, y) = \begin{cases} 2(\mu_i^f(x, y))^2, & 0 \leq \mu_i^f(x, y) \leq \frac{1}{2}, \\ 1 - 2(1 - \mu_i^f(x, y))^2, & \frac{1}{2} < \mu_i^f(x, y) \leq 1. \end{cases}$$

4. Normallashtirish:

$$v(x, y) = l \frac{g(x, y) - g_{\min}}{g_{\max} - g_{\min}}.$$

5. Fazzifikatsiyalash (Noravshanlanish):

$$\mu_i^g(x, y) = \frac{1}{1 + \frac{v(x, y) - c_i}{\sigma_g}}, \quad i = \overline{1, k}.$$

6. Fazzifikatsiyalashni (Noravshanlanishni) aniqlashtirish:

$$\mu_i^g(x, y) = \begin{cases} 2(\mu_i^s(x, y))^2, & 0 \leq \mu_i^s(x, y) \leq \frac{1}{2}, \\ 1 - 2(1 - \mu_i^s(x, y))^2, & \frac{1}{2} < \mu_i^s(x, y) \leq 1. \end{cases}$$

Bu erda $f(x, y)$ va $g(x, y)$ tasvirning birlamchi va qayta ishlashdan keyin mos ravishda olingan kadrning (x, y) nuqtasidagi yorqinlik qiymatlari, x - satr raqami va y ustun raqami;

c_i , σ_f va σ_g - tegishlilik funksiyasining parametrlari.

Kompyuterga kiritilgan tasvirlar ko‘pincha past kontrastli, ya‘ni ularning yorqinligidagi o‘zgarishlar uning o‘rtacha qiymatiga nisbatan kichik bo‘ladi. Bunday holda, yorqinlik qora rangdan oq rangga emas, balkim kulrangdan biroz ochroq kulrangga o‘zgaradi. Ya‘ni, haqiqiy yorqinlik oralig‘i ruxsat etilganidan (yorqinlik shkalasidan) ancha past bo‘ladi. Kontrastni oshirish masalasi tasvirning yorqinlik oralig‘ini to‘liq miqyosga “cho‘zish”ni bildiradi.

Bu masalani chiziqli kontrastni elementma-element o‘zgartirish yordamida hal qilish mumkin:

$$g(x, y) = af(x, y) + b,$$

yani, shunday a va b olinadiki, ular yorqinlik maydonining noravshan qiymatlarini ba‘zi standart kattaliklarga keltiradi. Bu erda $M[f(x, y)]$, $\sigma[f(x, y)]$ oldindan baholanadi, a , b koeffitsientlari shunday tanlanadiki, chiqish maydoni uchun $M[g(x, y)]$, $\sigma[g(x, y)]$ lar olinsin:

$$\begin{aligned} \bar{g}(x, y) &= \frac{f(x, y) - M[f(x, y)]}{\sigma[f(x, y)]} \cdot \sigma[g(x, y)] + M[g(x, y)] = \\ &= \frac{\sigma[g(x, y)]}{\sigma[f(x, y)]} f(x, y) + M[g(x, y)] - M[f(x, y)] \frac{\sigma[g(x, y)]}{\sigma[f(x, y)]}, \end{aligned}$$

yani

$$a = \frac{\sigma[g(x, y)]}{\sigma[f(x, y)]}; \quad b = M[g(x, y)] - M[f(x, y)] \frac{\sigma[g(x, y)]}{\sigma[f(x, y)]}.$$

Bu yerga

$$M[f(x, y)] = \frac{\sum_{i=1}^k f_i(x, y) \cdot \mu_i^f(x, y)}{\sum_{i=1}^k \mu_i^f(x, y)}, \quad M[g(x, y)] = \frac{\sum_{i=1}^k g_i(x, y) \cdot \mu_i^g(x, y)}{\sum_{i=1}^k \mu_i^g(x, y)};$$

$$g(x, y) = F(f(x, y)) = \begin{cases} 0, & \bar{g}(x, y) < 0, \\ \bar{g}(x, y), & 0 \leq \bar{g}(x, y) \leq 255, \\ 255, & \bar{g}(x, y) > 255. \end{cases}$$

2.2 paragrafda kontrastni kuchaytirish uchun intuitiv noravshan yondashuv taklif qilingan, bunda raqamli tasvirlarda mavjud bo'lgan noravshanlikni hal qilishning moslashuvchan va moslasha oladigan usuli taklif qilingan.

A tasvir ko'rilgan, hajmi $M \times N$ piksel, kulrang darajadagi r mavjudligi 0 va $L - 1$ oralig'ida. Tasvirga ishlov berish uchun INTdan foydalanilganda, ularni noravshan singletonlar massivi deb hisoblash mumkin. Har bir massiv elementi yorqinlik, aniqlik, bir xillik kabi oldindan belgilangan tasvir xususiyatlariga muvofiq kulrang darajagi g_{ij} (i, j)-chi pikselga mos keladigan tegishlilik qiymatiga $\mu_{\tilde{A}}(g_{ij})$ ishora qiladi.

Ushbu yondashuvni umumlashtirish sifatida intuitiv noravshan muhitda quyidagi tasvirni taqdim etish kiritilgan:

$$A = \left\{ \langle g_{ij}, \mu_A(g_{ij}), \nu_A(g_{ij}) \rangle \mid g_{ij} \in \{0, \dots, L-1\} \right\},$$

bu yerda $i \in \{1, \dots, M\}$ va $j \in \{1, \dots, N\}$, $\mu_A(g_{ij})$ va $\nu_A(g_{ij})$ mos ravishda (i, j)-chi pikselning tasvir xossalariga muvofiq to'plamga tegishlilik va tegishli emaslik darajasini bildiradi.

INT nazariyasiga asoslangan tasvirni qayta ishlash usullari raqamli tasvirlarda tez-tez uchraydigan birqiymatlimaslik va noravshanlik sharoitida tasvir kontrasti kabi "sifatli" xususiyatlar bilan kurashish uchun moslashuvchan matematik asosni ta'minlaydi.

Tasvirlardagi noravshanlik turli omillardan kelib chiqadi. Ular pikselning "kulrang" yoki "o'tkir" ekanligini aniqlashda bizning ishonchimizga ta'sir qiladi va shuning uchun tegishli nuqta bilan bog'liq ba'zi shubhalarni keltirib chiqaradi. Tasvir piksellarining yorqinligini tavsiflovchi A komponentining INTga tegishlilikini aniqlash an'anaviy noravshan tasvirni qayta ishlash tizimlarida bo'lgani kabi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan oddiyroq vazifadir. Taqdim etilgan evristik tizimda kulrang daraja qiymati g ning uning normallashtirilgan intensivlik darajasiga tegishlilikini ko'rib chiqamiz:

$$\mu_A(g) = \frac{g}{L-1},$$

bu yerda $g \in \{0, \dots, L-1\}$. Shuni ta'kidlash kerakki, μ_A ni hisoblashning boshqa har qanday usuli qo'llanilishi mumkin.

Biz tanlovimizni "kulrang daraja taxminan g " ga teng tushunchasini ifodalash uchun kontseptual jihatdan mos bo'lgan simmetrik noravshan raqamlar bilan cheklaymiz. Simmetrik uchburchak noravshan son quyidagicha aniqlanadi

$$\mu_{\tilde{g}}(x) = \max \left\{ 0, 1 - \frac{|x - g|}{p} \right\},$$

bu erda musbat parametr p sonning shaklini boshqaradi.

Tasvirning xiralashishi - tasvir piksellari bilan bog'liq ikkima'nolikning kulrangligi o'lchovidir. Ba'zan yorqin va qorong'i joylar o'rtasidagi kontrastni oshirish uchun tasvirdagi xiralik miqdorini bir necha marta kamaytirish talab etiladi. Noravshanlikni minimallashtirishga asoslangan kontrastni kuchaytirish algoritmi quyidagi shaklda taklif etiladi:

$$\mu_{\bar{A}}(g) = \left(1 + \frac{g_{\max} - g}{F_d} \right)^{-F_e},$$

bu yerda g_{\max} istalgan narsaning maksimal kulrang darajasini bildiradi va F_e , F_d mos xolda noravshan tekisliklarda noaniqlikni boshqaradigan eksponensial va denominatsional fazzifikatorlardir. F_d fazzifikator quyidagicha aniqlanadi:

$$F_d = \frac{g_{\max} - g}{\left(\frac{1}{2} \right)^{\frac{-1}{F_e}} - 1}.$$

Tegishlilik qiymatlarini o'zgartirgandan so'ng, defazzifikator quyidagicha amalga oshiriladi:

$$g' = \begin{cases} 0 & \text{если } \bar{g}' < 0, \\ \bar{g}' & \text{если } 0 \leq \bar{g}' \leq 255, \\ 255 & \text{если } \bar{g}' > 255, \end{cases}$$

bu yerda g' - yangi kulrang daraja va \bar{g}' teskari tegishlilik funksiyasidan hosil qilinadi:

$$\bar{g}' = g_{\max} - F_d \left((\mu_{\bar{A}}(g))^{\frac{-1}{F_e}} - 1 \right).$$

2.3 paragrafda tasvirlardagi obyektlarning konturlarini aniqlashning mavjud usullari tahlili keltirilgan. Tasvirlardagi obyektlarning konturlarini aniqlash muammosini hal qilish uchun oxirgi paytlarda asosan quyidagi uchta yondashuvlar qo'llanilgan:

- 1) diskret hosilalarni hisoblashga asoslangan yondashuv;
- 2) tasvirlarning har bir pikseli atrofida yorqinlikning statistik tahliliga asoslangan yondashuv;
- 3) noravshan to'plamlar nazariyasidan foydalanishga asoslangan yondashuv.

Diskret hosilalarni hisoblashga asoslangan yondashuv doirasida ishlab chiqilgan barcha usullar birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarni hisoblashga asoslanadi va ikki guruhdan iborat. Birinchi guruh usullar gradientlar operatorlariga, ikkinchi guruh esa Laplas operatorlariga asoslangan.

Gradientlar operatorlarini aniqlash usullarining asosiy g'oyasi birinchi darajali diskret differentsialdagi muhim (maksimal) o'zgarishlarga mos keladigan pikseller to'plamini izlashdir. Bunda obyekt konturlarini aniqlash gradient vektorlarining maksimal modulini izlash asosida amalga oshiriladi.

Laplas operatorlari yordamida konturlarni izolyatsiya qilish diskret ikkinchi tartibli hosilani aniqlashga qisqartiriladi. Laplas operatorlariga asoslangan usullarning

asosiy g'oyasi tasvirdagi yorqinlik darajasidagi uzilishlarni ta'kidlash va yorqinligi zaif o'zgarishlar bo'lgan joylarni bostirishdan iboratdir. Laplas operatorlariga asoslangan usullarning asosiy afzalligi shundaki, ular juda tezdir. Ushbu protseduralarning kamchiliklari tasvir shovqiniga sezgirlikdir. Shu sababli, amaliy masalalarni yyechishda Laplas operatorlariga asoslangan konturni aniqlash usullari amalda qo'llanilmaydi.

Hozirgi vaqtda statistik usullar asosida ishlab chiqilgan bir qancha konturlarni ajratib olish algoritmlari mavjud. Ushbu algoritmlarning asosiy g'oyasi ko'rib chiqilayotgan tasvir elementining qo'shni piksellari yorqinligining standart og'ishini tahlil qilish asosida obyektlarning konturlarini aniqlashdir.

Ushbu yondashuvning bir varianti tasvirning bir hil sohalari aniqlanadigan tasvir segmentatsiyasidir. Natijada, ko'rib chiqilayotgan asl tasvir idealga aylantiriladi. Keyinchalik, diskret hosilalarni hisoblashga asoslangan usullardan biri yordamida segmentlangan tasvirning konturlarini aniqlash mumkin. Ushbu usullar katta hisoblash amallarini talab qiladi. Ushbu kamchilik tufayli, tasvirlardagi obyektlarning konturlarini aniqlashda bu usul amalda qo'llanilmaydi.

FIRE (fuzzy inference ruled by else-action – ELSE-harakat asosida noravshan xulosa chiqarish) paradigmasiga asoslangan konturlarini aniqlashda usuli shovqinga nisbatan bardoshlilikga ega. Bu usulda noravshan qoidalarga hissa sifatida 3x3 atrofida kulrang darajadagi farqlardan foydalanadi.

“Kontur” va “burchak” tushunchalarini kiritish orqali gradient, simmetriya va to'g'richizililik kabi lokal xususiyatlar birlashtirilgan noravshan mantiqqa asoslangan kontur ajratish usulining kamchiligi shundaki, kontur nuqtasini ikkita bir xil tekis maydonlar orasidagi yuqori gradientli nuqta sifatida an'anaviy ta'rifi burchaklarda (tekis o'lchovli maydon o'tkir burchakka ega bo'lgan) ishlamaydi. Tasvirni 3-noravshan qismlarga (sohalarga) bo'lish, so'ngra eng yaxshi qirrani olish uchun maksimal entropiyani topish orqali konturni aniqlash usuli. Shuningdek, u entropiya funktsiyasini maksimallashtirish uchun zarur shartni oladi. Ushbu shartlarga asoslanib, uch darajali chegaraviy qiymat olinadi.

Noravshan to'plamlar nazariyasi va noravshan mantiqqa asoslangan usullar takomillashtirilmogda. Raqamli tasvirni qayta ishlash sohasida erishilgan yutuqlarga qaramay, bir qator hal qilinmagan muammolar mavjud. Jumladan, predmet sohasini noravshan tizimga mos akslantirish, noravshan mantiqiy xulosalar modellarini tanlash va ularni yagona intellektual tizimga integratsiyalash muammolari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, noravshan to'plamlar nazariyasiga asoslangan ishlab chiqilgan ko'plab usullar katta hisoblash resurslarini talab qiladi, bu esa ulardan amaliy tizimlarda, masalan, biometrik kirish-chiqishni boshqarish tizimlarida foydalanishni murakkablashtiradi.

2.4 paragrafda rangli tasvirlarni yaxshilashga yondashuv taklif qilingan, bunga dinamik oraliqni kengaytirish usulidan asos sifatida foydalanilgan. Biroq, intensivlik qiymatlarini haddan tashqari kuchaytirish, ayniqsa rangli tasvirlar haqida gap ketganda, har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Shu sababli, bu usulda piksel intensivligi qiymatlarining kuchaytirilishini sozlash amalga oshirilgan.

Tasvirni yaxshilashda informativ parametrlar sifatida lokal soha atrofining o'lchami va lokal sohada piksel intensivligini kuchaytirish koeffitsientlari qiymatlari

